FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 5-avgust 262-11-169-Q/24 Farg‘ona shahar hokimligi

Farg‘ona shahar “Istiqlol” mahalla fuqarolar yig‘ini Abdulla Qodiriy ko‘chasiga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” va 7.4.1 “Transport vositalarining turi” yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son qarori ijrosini ta’minlash hamda Farg‘ona shahrida avtotransport vositalarining harakatini tartibga solish maqsadida, shuningdek, Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2024-yil 12-iyundagi 33/983-son xulosa xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlarini faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2024-yil 12-iyundagi 33/983-son xulosa xati inobatga olinsin.

2. Farg‘ona shahrida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, transport vositalari harakatini tartibga solish, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash uchun yirik gabaritli va katta hajmli yuk transport vositalarining to‘xtash va to‘xtab turishini taqiqlash maqsadida “Istiqlol” mahalla fuqarolar yig‘ini Abdulla Qodiriy ko‘chasining (Abdulla Qodiriy dehqon bozori yo‘nalishidagi) kirish qismidagi yo‘lning ikkala tomoniga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” va 7.4.1 “Transport vositalarining turi” yo‘l belgilari amaldagi tartib bo‘yicha o‘rnatilsin.

3. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (R.Dexqonov):

Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi bilan hamkorlikda Farg‘ona shahar ko‘chalarida yo‘l belgisi o‘rnatishlishini tashkil etsin hamda mazkur hududlarda avtomobillar harakati cheklanishini nazorat qilib borsin.

4. Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati ushbu qarorni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritish choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash Farg‘ona shahar hokimining o‘rinbosari J.Baxtiyorov hamda Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i A.Mirzaevlar zimmasiga yuklansin.

Farg‘ona shahar hokimi **V.Nazarov**